

**MINIMAL SHAROITDA YUQORI SINF O'QUVCHILARIGA
CHET TILIDA TA'LIM BERISHNING PEDAGOGIK
YONDASHUVLARI VA METODLARI**

Karimova Gavxaroy Murodjanovna¹

¹ Asaka tumani 59-umumta'l'm
maktabi ingliz tili o'qituvchisi

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 29.03.2025

Revised: 30.03.2025

Accepted: 31.03.2025

KALIT SO'ZLAR:

*minimal sharoit,
yuqori sinf o'quvchilarini,
chet tili, ta'l'm jarayoni,
pedagogik
yondashuvlar, interfaol
usullar, audiovizual
vositalar,
lokalizatsiyalangan
materiallar, mustaqil
o'qish, o'qituvchilar
malakasi, innovatsion
metodlar, samarali
ta'l'm, ta'l'm
samaradorligi,
pedagogik strategiyalar.*

*minimal sharoitda yuqori sinf o'quvchilariga chet
tilida ta'l'm berish masalalariga bag'ishlangan.
Unda mavjud resurslardan oqilona foydalanish,
innovatsion pedagogik yondashuvlar va samarali
metodlarni qo'llash orqali ta'l'm jarayonini sifatli
tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil
qilingan. Maqolada o'quvchilarni faol o'quv
jarayoniga jalb qilish, interfaol usullar, audiovizual
vositalar, lokalizatsiyalangan materiallar va
mustaqil o'qishni qo'llab-quvvatlovchi
strategiyalarni joriy etish usullari ko'rib chiqilgan.
Shuningdek, o'qituvchilar uchun malaka oshirish
dasturlarini ishlab chiqish va ularni
texnologiyalardan samarali foydalanishga
yo'naltirish bo'yicha tavsiyalar taqdim etilgan.
Ushbu maqola pedagoglar, tadqiqotchilar va ta'l'm
sohasi mutaxassislari uchun amaliy ahamiyatga ega
bo'lib, chet tilini o'rgatish jarayonini samarali
tashkil etishning dolzarb yondashuvlarini ochib
beradi.*

KIRISH. Hozirgi davrda globalizatsiya jarayonlari tezlashib, dunyo mamlakatlari o'rtaida madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik tobora kuchayib bormoqda. Ushbu jarayonda chet tilini bilish faqatgina o'zaro muloqotni osonlashtirish vositasi sifatida emas, balki shaxsning jamiyatdagi muvaffaqiyati, kasbiy o'sishi va o'zini anglashida muhim omil sifatida qaralmoqda. Chet tilini bilish – bu faqat til qoidalarini o'rganish emas, balki

dunyoqarashni kengaytirish, yangi bilimlarni o‘zlashtirish va boshqa madaniyatlarni anglash imkonini beruvchi vositadir. Shu sababli, ta’lim tizimida chet tillarni o‘rgatish masalasi tobora dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Biroq, ko‘p hollarda maktablar va ta’lim muassasalari cheklangan moddiy-texnik sharoitlarda faoliyat olib boradi. Ayniqsa, qishloq va uzoq hududlardagi ta’lim muassasalarida resurslarning yetishmasligi, o‘qituvchilarning malaka darajasi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarining cheklangani kabi muammolar mavjud. Ushbu holat o‘quvchilarning chet tilini o‘zlashtirish jarayonida qiyinchiliklarga olib keladi. Shunga qaramay, pedagogik yondashuvlar va metodlar o‘qitish jarayonini minimal sharoitlarda ham samarali tashkil etishga yordam beradi.

Minimal sharoitda ta’lim berishni tashkil etishda o‘quv muhitining pedagogik asoslari o‘qituvchining ijodkorligi va resurslardan samarali foydalanish mahoratiga tayanadi. Hozirgi kundagi iqtisodiy va texnik cheklovlar sharoitida ta’lim samaradorligini oshirish uchun mavjud imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanish talab etiladi. O‘qituvchining vazifasi nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning mavjud imkoniyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashgan ta’lim muhitini shakllantirishdan ham iboratdir. Shu ma’noda, minimal sharoitlarda pedagogik faoliyatni tashkil etish zamonaviy yondashuvlarni talab qiladi.

O‘quv muhitini tashkil etishda eng avvalo, mavjud resurslardan oqilona foydalanish tamoyiliga asoslanish kerak. Masalan, o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olib, kichik guruuhlar shaklidagi mashg‘ulotlarni yo‘lga qo‘yish samarali usuldir. Bunday faoliyat jarayonida o‘quvchilar bir-birining bilim va ko‘nikmalaridan foydalanish orqali bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatini oshiradi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarni muloqotga jalg etadi, ular orasida ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantiradi va ta’lim jarayoniga qiziqishni kuchaytiradi.

Nunan ta’lim jarayonida samarali til o‘qitish kommunikativ yondashuvlarni qo‘llashni talab qiladi, bu yondashuvlar o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlaydi deb aytib o’tadi[1]. Nunanning fikriga ko‘ra, chet tilini o‘rganish jarayoni faqat pasif bilim olish emas, balki o‘quvchining faol ishtirokini ta’minalashga asoslangan bo‘lishi lozim. Bu fikr minimal sharoitda ta’lim berishda ham juda ahamiyatli, chunki o‘quvchilarni o‘zlarini ifoda etishga undovchi kommunikativ metodlar, masalan, rolda o‘ynash va guruhli ishslash, chet tilini o‘rganishda samarali bo‘ladi.

Shuningdek, interaktiv dars usullari, xususan, muammo yechish, rolda o‘ynash va muloqotga asoslangan o‘yinlar orqali o‘quvchilarni o‘zlashtirish jarayoniga faol jalg qilish

mumkin. Eng samarali o'qitish metodlari mazmunli muloqotga e'tibor beradi, interaktivlik va qayta aloqa qilishga urg'u beradi[2]. Harmerning bu fikri chet tilini o'rganishda o'quvchilarni muloqotga faol jalb etishning muhimligini ko'rsatadi. Minimal sharoitda darslar o'tkazish uchun samarali metodlar o'quvchilar o'rtasida o'zaro fikr almashish va o'rganish jarayonida qayta aloqa (feedback) olishga asoslanishi kerak. Bu nafaqat til o'rganishning samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarga o'zlarini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Minimal sharoitda ta'lif berish jarayonida pedagogning shaxsiy namunasini ko'rsatishi ham muhimdir[3]. O'qituvchi o'zining bilim darajasi, metodik mahorati va kreativligi bilan o'quvchilarni ilhomlantiradi. Shu sababli, o'qituvchi uchun o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Minimal sharoitlarda ta'lif muhitini tashkil etish nafaqat mavjud resurslardan foydalanish, balki pedagogning ijodiy yondashuvlari va o'quvchilarni jalb qilishning samarali usullarini qo'llash orqali ham amalga oshiriladi[4]. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirishga, ularning mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Minimal sharoitlarda ta'lif jarayonini samarali tashkil etishda interfaol metodlar alohida ahamiyatga ega. Masalan, "Rol o'ynash" usuli orqali o'quvchilar dars jarayonida chet tilida turli hayotiy vaziyatlarni amalda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu usul, birinchidan, tilni muloqot vositasi sifatida tushunishlariga yordam bersa, ikkinchidan, ularning muloqotda ishonch bilan qatnashish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, do'kondagi xarid, mehmonxonadagi suhbat yoki aeroportdagi muloqot kabi hayotiy vaziyatlar sahnalashtirilgan holda o'rganilsa, o'quvchilar bu jarayonda o'zlarini faol his qilib, chet tilini o'zlashtirishni kuchaytiradi.

Munozara usuli esa o'quvchilarni qiziqarli mavzular atrofida suhbatlashishga undaydi[5]. O'quvchilar o'z fikrlarini chet tilida izhor qilish orqali nafaqat o'z so'z boyligini oshiradi, balki o'z nuqtai nazarini asoslab berishga o'rganadi. Munozaralar, ayniqsa, mavhum yoki bahsli mavzularda samarali bo'lib, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, guruhlardagi faoliyat jamoaviy ishlarni amalga oshirishda ham muhimdir, bu esa o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy ko'nikmalarni mustahkamlaydi.

Interfaol metodlarning afzalligi shundaki, ular o'quvchilarni o'zaro hamkorlikka, ijodkorlikka va mustaqil fikrlashga undaydi. Ushbu usullar orqali o'quvchilarda o'zini o'zi anglash, mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi. Shu bilan birga, bunday faoliyatlar jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik munosabatlar yanada mustahkamlanadi. Interfaol metodlar,

o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etish orqali, ular o‘rtasida muloqot madaniyatini rivojlantiradi va ularning chet tilini o‘zlashtirish jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi. Interfaol metodlar minimal sharoitda ta’lim jarayonini sifatli tashkil etishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu usullar chet tilini o‘rganishni faqat nazariy bilimlarni olish emas, balki hayotiy ko‘nikmalarни rivojlantirishga qaratilgan samarali o‘quv jarayoniga aylantiradi.

Minimal sharoitda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishning muhim jihatlaridan yana biri o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir[6]. Mustaqil ta’lim zamonaviy pedagogik yondashuvlar ichida alohida o‘rin tutadi, chunki bu jarayon o‘quvchilarda o‘z maqsadlarini belgilash, rejalashtirish, resurslardan samarali foydalanish va o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi ko‘nikmalarни shakllantiradi. Ayniqsa, chet tilini o‘rganishda mustaqil ta’lim o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash va amaliyotga tadbiq qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil ta’limning yana bir muhim jihatи uning o‘quvchilarni o‘z bilimlarini takrorlashga va mustahkamlashga undashidir[7]. O‘quvchilar chet tilini o‘rganish jarayonida yangi so‘zlarni eslab qolish, grammatik qoidalarni mustahkamlash va talaffuzni yaxshilash uchun doimiy ravishda mashq qilishlari zarur. Shu bois, mustaqil mashg‘ulotlar o‘quvchilarda o‘z bilimlarini muntazam takomillashtirish odatini shakllantiradi. Bu esa ularning til o‘rganish jarayonida izchillikni saqlashiga va muvaffaqiyatga erishishiga imkon yaratadi. Mustaqil ta’limga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan mas’uliyatni oshirish, ularning mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv cheklangan sharoitlarda ham o‘quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa. Minimal sharoitda yuqori sinf o‘quvchilariga chet tilida ta’lim berish bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimining dolzarb masalalaridan biri bo‘lib, bu jarayon pedagoglarning ijodiy yondashuviga, o‘quvchilarning ehtiyojlarini to‘g‘ri aniqlashga va mavjud resurslardan samarali foydalanishga tayanadi. Ta’lim berish jarayonida o‘qituvchining roli nafaqat bilim beruvchi sifatida, balki samarali o‘quv muhitini yaratishga yo‘naltirilgan tashkilotchilik vazifasini bajaruvchi shaxs sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, cheklangan sharoitda ta’limning samaradorligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Minimal sharoitda ta’lim jarayonini muvaffaqiyatl tashkil etish pedagoglardan ijodiy yondashuvni, darsning samaradorligini oshiruvchi texnologiyalarni qo‘llashni va o‘quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan strategiyalarni talab qiladi. Ushbu

yondashuvlar nafaqat chet tilini muvaffaqiyatli o'rgatish, balki o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish va ularni kelajakdagi kasbiy va ijtimoiy faoliyatga tayyorlash uchun asos yaratadi. Shu bois, pedagogik jarayonda zamonaviy texnologiyalar, innovatsion metodlar va o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashuvchan yondashuvlar ta'lim sifatini oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Minimal sharoitda chet tilida ta'lim berishni samarali tashkil etish uchun bir qator muhim tavsiyalarni amaliyotga joriy etish zarur. Avvalo, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar yaratish dolzarb vazifadir. Ushbu maqola mavjud resurslardan oqilona foydalanish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan bo'lib, chet tilini o'rganishda interfaol metodlarni qanday qo'llash mumkinligini batafsil tushuntirib beradi va o'qituvchilarga darslarni ijodkorlik bilan tashkil etish, o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashish va dars mazmunini hayotiy holatlar bilan bog'lash uchun yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Nunan, D. (1999). *Language Teaching Methodology: A Textbook for Teachers*. Longman.
2. Harmer, J. (2007). *The Practice of English Language Teaching*. Pearson Longman.
3. Long, M. H. (1983). Native Speaker/Non-native Speaker Conversation and the Negotiation of Comprehensible Input. *Applied Linguistics*, 4(2), 126–141.
4. Ellis, R. (2003). *Task-based Language Learning and Teaching*. Oxford University Press.
5. Krashen, S. D. (1982). *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Pergamon Press.
6. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
7. Larsen-Freeman, D. (2000). *Techniques and Principles in Language Teaching* (2nd ed.). Oxford University Press.
8. Swain, M. (2000). The Output Hypothesis and beyond: Mediating Acquisition through Collaborative Dialogue. In S. McKay & N. Hornberger (Eds.), *Sociolinguistics and Language Teaching* (pp. 97–114). Cambridge University Press.
9. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.